

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-73-sonli qaroriga asosan
O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining
rivojlantirish dasturlari bo‘yicha 2023-yil davomida erishilgan natija ko‘rsatkichlari**

№	Maqsadli indikator nomi	O‘lchov birligi	2023-yil uchun maqsadli mo‘ljal	2024-yil 1-yanvar holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
	Raqobat qo‘mitasi markaziy apparati	mlrd so‘m	8,4	8,2	-0,3	97 %	
Strategik maqsad: Tadbirkorlar va iste‘molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta‘minlash va raqobat cheklanishining oldini olish va ularning manfaatlarini himoya qilish							
<i>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</i>							
1.	Tovar va moliya bozorlar ishtirokchilari sonining yillik o‘zgarishi	foiz	145,0	146,8	1,8	101 %	Respublikamizda tadbirkorlik subyektlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar natijasida, 2020-2023-yillar davomida tovar va moliya bozorlarida ishtirokchilarning soni sezilarli darajada oshgan bo‘lib, 2020-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra Respublikamizda 468 834 ta xo‘jalik yurutuvchi subyekt faoliyat ko‘rsatgan bolsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga 688 345 ta xo‘jalik yurutuvchi subyektlar faoliyat yuritmoqda. Tovar va moliya bozorlar ishtirokchilari sonining yillik o‘zgarishi 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 146,8 foizga oshgan.
2.	Monopol korxonalar soni	dona	65	90	25	72 %	O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 3-iyuldagi yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni e‘tirof etish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining bozordagi ulushi 40 foiz (eski tahrirda 50 foiz)dan ortiqni tashkil etishi belgilandi.
3.	Monopollashgan bozorlar soni	dona	79	104	25	76 %	Qonunchilikka ko‘ra, ustun mavqeni e‘tirof etish me‘zonlari o‘zgarganligi munosabati bilan, ya‘ni bozordagi ulushi 40 foizdan ortiqni tashkil etgan korxonalar ham ustun mavqeni egallagan deb e‘tirof etilishini inobatga olgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga ustun mavqeni e‘tirof etilgan korxonalar soni 90 tani, bozorlar soni esa 104 tani tashkil etganligi sababli, ushbu indekatorlarni amaldagi Qonun talablaridan kelib chiqib o‘zgartirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi
4.	Birja savdolarida yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlarning sotish hajmi	trln so‘m	44,0	83,0	39,0	189 %	Birja savdolarida yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlarning sotish hajmini 2023 yil yakuniga qadar 44 trln so‘mga yetkazish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 2023-yil davomida mahsulotlarning sotish hajmi 83,0 trln so‘mni tashkil qilgan.
<i>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</i>							
5.	Aniqlangan raqobatga zid harakatlar	dona	172	374	202	217 %	2023-yil davomida Qo‘mita markaziy apparati va hududiy boshqarmalari tomonidan insofsiz raqobat holatlari bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish natijalariga asosan 45 ta holatda qonun buzilish holatlari e‘tirof etilgan. 2023-yil davomida 12 ta holatda (jumladan, 2 ta holatda davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tashkil etishda Monopoliyaga qarshi organdan rozilik olmasdan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tashkil etilganligi,

№	Maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2023-yil uchun maqsadli mo'ljal	2024-yil 1-yanvar holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
							<p>8 ta holatda ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shartnomalar tuzishda ustun mavqeni suiiste'mol qilish, 2 ta holatda xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish va qo'shib olishda hamda aksiya (ulush)larni olishda) Monopoliyaga qarshi organdan dastlabki rozilik olmasdan bitimlar amalga oshirilganligi aniqlangan.</p> <p>2023-yil davomida hokimlik va davlat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonuni hamda amaldagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlarda 317 ta holatlarda qonun buzilish holatlari aniqlangan.</p>
6.	Tanlov (tender) savdolarida aniqlangan raqobatga zid omillar	dona	2 350	5 090	2 740	217 %	<p>Qo'mita tomonidan 2023-yil davomida davlat va korporativ buyurtmachilar tender (tanlov) savdolarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahlil ishlari olib borildi.</p> <p>Olib borilgan tahlil ishlarida davlat va korporativ buyurtmachilar tomonidan tanlov tender savdolarida kamchilik yo'l qo'yilib, shundan kamchilik aniqlangan holatlar soni 5 090 tani tashkil etib, shundan 336 ta holatda kamchiliklar buyurtmachilar tomonidan ixtiyoriy bartaraf etilgan bo'lsa, 1 999 ta holatlar Prokuratura organlariga, 599 ta holatlar Hisob palatasiga yuborilgan, qolgan 2 156 ta holatlarga Qo'mita va hududiy boshqarmalar tomonidan ta'sir choralari ko'rilganligi ma'lum bo'ldi.</p>
7.	Ex-ante usulida raqobatga ta'siri baholangan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	dona	787	1 896	1 109	241 %	<p>Ex-ante usulida raqobatga ta'siri baholangan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini 2023-yil yakuniga qadar 787 ta loyihalar raqobatga ta'siri baholanishi rejalashtirilgan. 2023-yil davomida 1 896 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining raqobatga ta'siri baholangan.</p>
8.	Tabiiy monopoliya sub'ektlari va monopol korxonalar tomonidan tadbirkor va iste'molchilarga qaytarilgan mablag'lar hajmi	mlrd so'm	35,0	37,5	2,5	107 %	<p>2023-yil yakuniga qadar Tabiiy monopoliya subyektlari va monopol korxonalar tomonidan tadbirkor va iste'molchilarga 35,0 mlrd so'm qaytarish rejalashtirilgan bo'lib, 2023-yil davomida jami 37,5 mlrd so'm mablag'lar iste'molchilar foydasiga qayta hisob kitob qilingan.</p>
9.	Monopol yuqori narx o'rnatish hamda tartibga solinadigan narxlarni asossiz oshirish bo'yicha aniqlangan holatlar	dona	75	114	39	152 %	<p>Qo'mita tomonidan 2023-yil yakuniga qadar 75 ta Monopol yuqori narx o'rnatish hamda tartibga solinadigan narxlarni asossiz oshirish holatlarini aniqlash rejalashtirilgan bo'lib, 2023-yil davomida aniqlangan holatlar soni 114 tani tashkil etgan.</p>
10.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy qilingan davlat organlari va monopol korxonalar	dona	65	100	35	154 %	<p>"Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy qilingan davlat organlari va monopol korxonalar sonini 2023-yil yakunida 65 tagacha yetkazish rejalashtirilgan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6019-sonli Farmonining ijrosini ta'minlash, shuningdek, raqobat to'g'risidagi qonun talablarining buzilish xavfini oldini olish va biznes yuritishning korporativ standartlarini joriy etishga oid samarali tizimni tashkil etish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 114-son qarori qabul qilingan.</p>

№	Maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2023-yil uchun maqsadli mo'ljal	2024-yil 1-yanvar holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
							Mazkur Farmon va Qarorga muvofiq 2023-yil davomida Qo'mita tomonidan raqobat to'g'risidagi qonun talablarining buzilish xavfini oldini olish va biznes yuritishning korporativ standartlarini joriy etishga oid samarali tizimni tashkil etish maqsadida 100 ta tashkilotlarda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi to'liq joriy qilingan.
11.	Eksklyuziv huquqlar va preferensiyalarni taqdim etishni ko'zda tutgan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish yoki o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar	hujjatlar soni	15	16	1	107 %	Iqtisodiyot tarmoqlariga xususiy sektorni keng jalb qilish hamda eksklyuziv huquqlarni bekor qilish orqali mavjud monopoliyalarni bartaraf etish ishlarini davom ettirish maqsadida Qo'mita tomonidan navbatdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni loyihasi (ID-86239) ishlab chiqildi. Mazkur loyihada 16 ta faoliyat turlari bo'yicha eksklyuziv huquqlarni bekor qilish orqali mavjud monopoliyalarni bartaraf etishga qaratilgan normalar belgilandi. Mazkur Farmon loyihasi Qo'mitaning 2023 yil 29 avgustdagi 675/01-11-sonli xati bilan belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan.
12.	Sifati ekspertizadan (testdan) o'tkazilgan mahsulot turlari	dona	40	46	6	115 %	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan 46 turdagi 270 ta mahsulotlarni sifati ekspertizadan o'tkazilgan bo'lib, sinov natijalariga ko'ra, 26 ta mahsulot talabga javob bermasligi aniqlangan.
13.	Qonunchilik talablariga muvofiqligi o'rganilgan reklama materiallari	dona	1 800	1 958	158	109 %	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va hududiy boshqarmalar tomonidan ommaviy ahborot vositalari (ijtimoiy tarmoqlar va mesenjerlar) orqali tarqatilayotgan reklamalar hamda savdo do'konlarning tashqi va ichki qismida joylashtirilgan reklamalarning Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablariga mosligi yuzasidan 2023-yil davomida 1 958 ta monitoring va tahlil ishlari olib borilgan bo'lib shundan 884 ta reklama materiallari qonunchilik talablariga mos emasligi aniqlangan.